



# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-yil 6-son

VOLUME 3 / ISSUE 6 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.6.



**Crossref**  
Content  
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

# MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ  
NAZARIYASI VA TARIXI.  
HUQUQIY TA'LIMOTLAR  
TARIXI

- 5 HAYITOV SHERZOD  
RAXMATULLAYEVICH**  
Huquqiy eksperimentni o'tkazish bosqichlari:  
nazariy-huquqiy tahlil

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY  
HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ.  
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 17 MADIYEV FAXRIDDIN XOSHIM O'G'LI**  
Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi tushunchasi  
va uning huquqiy tabiati
- 29 ILXOMBEKOV JASURBEK ILXOMBEK O'G'LI**  
Internet tarmog'idan axborot olish jarayonini  
huquqiy jihatdan tartibga solish va amalga  
oshirishda vujudga keladigan muammolar
- 38 КУАТБЕК ГУЛНАР КУАТБЕКОВНА**  
Правовые вопросы ведения интернет-  
ресурсов представительных органов  
местной власти в Узбекистане и Казахстане
- 52 AMIROV SANJAR ILYOS O'G'LI**  
Konstitutsionalizmning paydo bo'lishi va uning  
rivojlanish asoslari

12.00.04 – FUQAROLIK  
PROTSESSUAL HUQUQI.  
XO'JALIK PROTSESSUAL  
HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI  
VA MEDIATSIYA

- 60 XAKBERDIYEV ABDUMURAD  
ABDUSAIDOVICH**  
Hakamlik sudining hal qiluv qarori tushunchasi  
va huquqiy ahamiyati
- 69 КАРИМОВА МАДИНА МИРЗАДЖАНОВНА**  
Функции нотариата в современном  
правовом государстве

- 77 JALILOVA SARDORA ABDUROZIQ QIZI**  
Milliy qonun hujjatlarida mediatsiya institutining umumiy tavsifi hamda ushbu soha doirasida aniqlangan muammolar

**12.00.06 – TABIIY RESURLAR  
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.  
EKOLOGIK HUQUQ**

- 85 MAHBUBA XAMIDOVA ALIJANOVNA**  
Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida yechimi kutilayotgan chora-tadbirlar

**12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.  
KRIMINALISTIKA,  
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA  
SUD EKSPERTIZASI**

- 93 MAXMADIYAROVA XUMORA  
O'KTAMOVNA**  
Sud muhokamasida taraflarning protsessual imkoniyatlari tengligini ta'minlash tortishuv prinsipining muhim sharti sifatida

**12.00.12 – KORRUPSIYA  
MUAMMOLARI**

- 100 NOROV ILKHOM IBROXIMOVICH**  
Exploring dimensions of anti-corruption agencies (in the example of Central Asia)

**13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA  
NAZARIYASI VA METODIKASI  
(SOHALAR BO'YICHA)**

- 112 МАТЕНОВ РАШИД БЕКИМБЕТОВИЧ**  
О роли новых педагогических технологий в преподавании языковых дисциплин в юридическом вузе

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.6./HARX6496>  
UDC: 342.721(045)(575.1)

## SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGI HUQUQI TUSHUNCHASI VA UNING HUQUQIY TABIATI

**Madiyev Faxriddin Xoshim o'g'li,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Konstitutsiyaviy huquq kafedrası katta o'qituvchisi  
ORCID: 0000-0002-3034-7334  
e-mail: fmadiyev92@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi tushunchasi va uning huquqiy tabiati nazariy tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, jamiyat hayotida raqamli texnologiyalarning keng joriy qilinishi fuqarolarning shaxsiy hayoti daxlsizligini ta'minlash borasida ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda. Shu bois shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi tushunchasini konseptual, ilmiy-metodologik jihatdan o'rganish, tahlil etish lozim. Insonning yashash huquqi, uy-joy daxlsizligi, yozishmalar siri, vijdon erkinligi kabi tabiiy huquq va erkinliklar davlat tomonidan berilmaydi, balki tug'ilganidanoq shaxsga tegishli hisoblanadi. Har bir shaxsning o'z sifatlariga ma'naviy-axloqiy baho berishga bo'lgan huquqini uning shaxsiy huquqi sifatida baholasak, subyektiv xususiyatga ega hisoblanadi. Shu bois uning qadr-qimmati va obro'-e'tibori jamiyatdagi ijtimoiy fikr bilan mos kelishi yoki mos kelmasligi ham mumkin. Maqolada "shaxsiy hayot", "shaxsiy hayot daxlsizligi", "shaxsiy hayot daxlsizligining funksiyalari va vazifalari" kabi tushunchalar tahlil qilindi. Shuningdek, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasi hamda huquqshunos olimlarning shaxsiy hayot daxlsizligiga oid yondashuvlari o'rganilib, shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini kompleks tahlil qilish, shaxsiy hayot daxlsizligi huquqiga mualliflik tarifi ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** shaxsiy hayot, shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining prinsiplari, shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining vazifa va funksiyalari, shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi.

### ПОНЯТИЕ ПРАВА НА НЕПРИКОСНОВЕННОСТЬ ЧАСТНОЙ ЖИЗНИ И ЕГО ПРАВОВАЯ ПРИРОДА

**Мадиев Фахриддин Хошим угли,**  
старший преподаватель кафедры «Конституционное право»  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье проводится теоретический анализ понятия права на неприкосновенность частной жизни и его правовой природы. Развитие цифровых технологий, их широкое внедрение в общественную жизнь требует проведения научных исследований по обеспечению конфиденциальности частной жизни граждан. Поэтому необходимо изучить и проанализировать понятие права на неприкосновенность частной жизни с концептуальной, научной и методологической точки зрения. Естественные права и свободы, такие как право на жизнь, неприкосновенность жилища, тайна переписки, свобода совести, не дарованы государством, а принадлежат личности от рождения. Если считать право каждого человека на морально-этическую оценку своих качеств своим личным правом, то оно имеет субъективный характер. Следовательно, его ценность и престиж могут быть совместимы, а могут и не соответствовать общественному мнению в обществе. Автор затронул темы «личная жизнь», «приватность личной жизни», «функции и задачи приватности». В статье

проведён комплексный анализ права на неприкосновенность частной жизни, проанализирован передовой опыт зарубежных стран и подходы учёных-юристов к неприкосновенности частной жизни, разработана авторская тарификация на право на неприкосновенность частной жизни.

**Ключевые слова:** частная жизнь, неприкосновенность частной жизни, принципы права на неприкосновенность частной жизни, задачи и функции права на неприкосновенность частной жизни, конфиденциальность персональных данных.

## THE CONCEPT OF THE RIGHT TO PRIVACY AND ITS LEGAL NATURE

**Madiev Fakhridin Khoshim ugli,**

Tashkent State University of Law,  
Senior lecturer of the Department of Constitutional Law

**Abstract.** This article provides a theoretical analysis of the concept of the right to privacy and its legal nature. The development of digital technologies and the widespread introduction of digital technologies in the lives of society require conducting scientific research on ensuring citizens' privacy. Therefore, it is necessary to study and analyze the concept of the right to privacy from a conceptual, scientific, and methodological point of view. Natural rights and freedoms, such as the right to life, privacy of housing, privacy of correspondence, and freedom of conscience, are not granted by the state but belong to the individual from birth. If we consider the right of each person to make a moral and ethical assessment of his qualities as his personal right, it is considered to have a subjective nature. Therefore, its value and prestige may or may not be compatible with the social opinion in society. The author touched on "personal life," "privacy of personal life," and "functions and tasks of privacy." In the article, a comprehensive analysis of the right to privacy, analyzing the advanced experience of foreign countries and the approaches of legal scholars to the privacy of personal life, and an author's tariff on the right to privacy of personal life have been developed.

**Keywords:** privacy, right to privacy, principles of the right to privacy, tasks and functions of the right to privacy, privacy of personal data.

### Kirish

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarining rivojlanishi, jamiyat hayotiga keng joriy qilinishi fuqarolarning shaxsiy hayoti daxlsizligini ta'minlash borasida ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda. Shu bois shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi tushunchasini konseptual, ilmiy-metodologik jihatdan o'rganish, uning huquqiy tabiatini ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil etish mazkur tadqiqot ishining dastlabki vazifasi hisoblanadi.

Avvalo, tadqiqot jarayonida konstitutsiyaviy huquq nuqtayi nazaridan O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida "shaxsiy hayot daxlsizligi" tushunchasiga aniq ta'rif berilmagani aniqlandi. Shu sababli "shaxsiy hayot daxlsizligi" tushunchasini nazariy-huquqiy jihatdan o'rganish va uning huquqiy tabiatiga baho berish maqsadida

milliy qonunchilik hujjatlari bilan bir qatorda xalqaro hujjatlarning tahlilini olib borishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Fikrimizcha, avvalo, shaxsiy hayot daxlsizligi hamda shaxsga doir ma'lumotlarning daxlsizligi to'g'risidagi xalqaro hujjatlar tahlil qilinishi maqsadga muvofiq. Jumladan, 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 3-moddasida har kim shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekanligi va 12-moddasida esa hech kimning shaxsiy hayotiga o'zboshimchilik bilan aralashish mumkin emasligi, shuningdek, har bir inson xuddi shunday aralashuv yoki tajovuzdan qonun orqali himoyalanih huquqiga ega ekanligi belgilangan [1].

Shuningdek, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 17-moddasida "Hech kim o'zining shaxsiy va

oilaviy hayotiga o'zboshimchalik yoki noqonuniy tarzda aralashishga, o'zining uy-joyi yoki yozishmalari siri daxlsizligiga o'zboshimchalik yoki noqonuniy tarzda tajovuz qilinishiga yoki uning or-nomusi va sha'niga noqonuniy tajovuz qilinishiga duchor etilishi mumkin emas. Har bir inson xuddi shunday aralashuv yoki tajovuzlardan qonun orqali himoya etilish huquqiga ega", [2] deb belgilangan.

Bundan tashqari, BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi 16-moddasida "...hech bir bolaning shaxsiy, oilaviy hayotiga, uyining daxlsizligiga yoki yozishmalar siriga bo'lgan huquqiga o'zboshimchalik bilan yoki noqonuniy aralashish yoki uning sha'ni va obro'siga noqonuniy tajovuz qilish mumkin emas"ligi hamda "...bola bunday aralashuv yoki tajovuzdan qonuniy himoyalaniş huquqiga ega" ekanligi kafolatlangan.

Barcha mehnatkash migrantlar va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyada "...hech bir mehnatkash migrant va ularning oila a'zolari shaxsiy hayotiga, oilaviy hayotiga, uyiga, yozishmalariga yoki boshqa aloqalariga aralashuvga yo'l qo'yilmasligi" belgilangan [3].

BMT Bosh Assambleyasi va Inson huquqlari bo'yicha kengashi tomonidan qabul qilingan Raqamli asrda shaxsiy daxlsizlik huquqi to'g'risidagi rezolyutsiyada "...insonning shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi deganda hech kim uning shaxsiy va oilaviy hayotiga, uy-joyiga yoki yozishmalariga aralashmasligi va bunday aralashuvdan qonuniy himoyalanişga bo'lgan huquqi" tushunilishi nazarda tutilgan.

Yevropa Ittifoqining 2018-yil 25-maydagi Ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha umumiy reglamenti (GDPR) shaxsiy ma'lumotlarning qonuniy, adolatli va shaffof tarzda to'planishi hamda qayta ishlanishi va shaxslarning shaxsiy ma'lumotlari ustidan nazoratni ta'minlashga qaratilgan.

## Material va metodlar

Mazkur masalani tadqiq etishni uch turdagi asoslar bilan amalga oshirish maqsadga muvofiq. Birinchidan, milliy huquqshunos olimlarning bu boradagi ilmiy qarashlari hamda yondashuvlarni tahlil etish, ikkinchidan, xorijiy mutaxassislarning fikr-mulohazalarini talqin etish, uchinchidan, ilg'or xorijiy tajribani qiyosiy-huquqiy tadqiq etish orqali muayyan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish vazifasi belgilab olindi.

Yuqorida sanab o'tilgan masalalarga javob topish maqsadida tadqiqot ishida tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanildi.

## Tadqiqot natijalari

Xalqaro hujjatlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ularda "shaxsiy hayot daxlsizligi" tushunchasi to'la o'z ifodasini topmagan, balki asosan shaxsiy hayotga aralashishlardan himoya qilinish huquqining bayoni ifoda etilgan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ularda shaxsiy hayotning aniq chegarasi hamda shaxsga doir ma'lumotlarning aniq turkumi va kategoriyalarini belgilab olish zarurati mavjud.

E'tirof etish lozimki, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 31-moddasida "Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega" deb qayd etilgan.

Tabiiyki, mazkur rahbariy va metodologik ahamiyatga molik konstitutsiyaviy qoidalar asosida yaqin istiqbolda mamlakatimizning butun qonunchilik tizimi modernizatsiya qilinadi. Ushbu jarayonda shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga oid qonunchilik hujjatlarini raqamli texnologiyalar rivojlanishi sharoitiga mos tarzda tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirishga jiddiy hamda alohida mas'uliyat bilan yondashish lozim bo'ladi.



Shu o'rinda boshqa qonun hujjatlarini, xususan, O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi, "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonunlari, Oila va Fuqarolik kodekslarini tahlil etish ularda shaxsiy hayot daxlsizligi tushunchasiga aniq ta'rif keltirilmaganini ko'rsatadi. Shunday ekan, sun'iy intellekt rivojlanishi va raqamlashtirish sharoitida shaxsiy hayot daxlsizligi tushunchasining ta'rif mavjud emasligi uning xususiyatlarini aniqlash uchun nazariy-huquqiy doktrinal tadqiqotlarni o'rganishni taqozo etadi. "Shaxsiy hayot daxlsizligi" tushunchasi yuzasidan xalqaro va milliy qonunchilik hujjatlariga tahliliy baho berilgach, shu o'rinda, xorijiy hamda milliy huquqshunos olimlarning bu bilan bog'liq ilmiy qarashlarini tahlil etish maqolada ko'zlangan asosiy maqsadga yetishga xizmat qilishi mumkin, deb hisoblaymiz. Qiyosiy-huquqiy tadqiqot, avvalo, AQSh, Yevropa, MDH hamda milliy huquqshunos olimlarning ilmiy ishlariga murojaat etish orqali amalga oshirildi.

Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqiga doir dastlabki ilmiy tadqiqotlar AQShning Boston huquq maktabi olimlari S. Uorren va L. Brandis tomonidan olib borilgan. Ularning "Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi" (*Right to privacy*)[4] maqolasida dastlab shaxsiy daxlsizlik huquqi odat huquqi sifatida har bir shaxsning "daxlsiz shaxsiyat"i (*inviolable personality*) himoya qilinishini o'zida mujassam etgan huquq sifatida tasvirlanadi. Mualliflar asosiy huquqiy tizimda shaxsiy daxlsizlik huquqi tan olinishi kerakligiga e'tiborni qaratib, o'z nuqtayi nazarini shaxsning shaxsiy hayoti haqidagi ma'lumotlar boshqalarga taqdim etilganda, bu uning obro'siga ta'sir ko'rsatishi va hatto moliyaviy zarar yetkazishi bilan asoslagan.

Demak, shaxsiy hayotga ta'rif berishda bu masalani shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi bilan bog'liq holda tahlil qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Rus olimasi M.N. Maleina o'zining "Fuqarolarning shaxsiy nomulkiy huquqlari: tu-

shuncha, amalga oshirish, himoya qilish" asarida: "Shaxsiy hayot sirini ma'lum shaxs haqidagi, uning kasbiy yoki ijtimoiy faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan, uning xarakteri, tashqi qiyofasi, sog'lig'i, moddiy ahvoli, oilaviy maqomi, turmush tarzi, tarjimai holining ayrim faktlari, uning qarindoshlari, do'stlari, tanishlar va boshqalar bilan munosabatlariga doir ma'lumotlar tashkil etadi" [5], deb fikr bildirgan. Muallifning ushbu ta'rifidan omma-viy bo'lmagan barcha ma'lumotlar sir bo'lishi hamda shaxsiy hayotning bir qismi hisoblanishi lozim, degan xulosa kelib chiqadi.

I.B. Grigoryev: "Shaxsiy hayot – individning o'zi nazorat qiladigan va tashqi ta'sirdan xoli bo'lgan jismoniy va ma'naviy hayoti hisoblanadi"[6], – deb ta'riflagan. Muallifning fikriga ko'ra, "shaxsiy hayot" tushunchasi ikkita belgiga ega bo'lgan soha – individning o'zi tomonidan nazorat qilinadigan va tashqi ta'sirdan xoli ekanligidir.

Bizningcha, shaxsiy hayot doim ham individning o'zi tomonidan nazorat qilinmasligi mumkin. Masalan, bir nechta shaxsga tegishli bo'lgan oilaviy sir haqida so'z borganda, bu unga bog'liq bo'lmagan holda boshqa shaxslar tomonidan ham oshkor qilinishi mumkin. Muallifning ajratgan ikkinchi belgisini qo'llab-quvvatlagan holda, shaxsiy hayot tashqi ta'sirlardan, jumladan, davlat, jamiyat va boshqa shaxslarning aralashuvidan xoli bo'lishi lozim deb hisoblaymiz.

L.O. Krasivchikova o'zining ilmiy ishida shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining bir necha tomonlarini ko'rsatgan. Jumladan, uning fikricha, shaxsiy hayot turli ko'rinishda namoyon bo'ladi. Xususan, shaxsning "jinsiy hayoti" uning individual hayoti ekanligini, shaxsning "oilaviy hayoti" uning oila a'zolari bilan bog'liq ma'lumotlari ekanligini, "tashkiliy hayoti" uning ish joyi, o'qish joyi, yashash joyi, mulkiy ma'lumotlari kabi ma'lumotlarni o'z ichiga olishini, "sog'liq bilan bog'liq" ma'lumotlar esa shaxsning shaxsiy kasallik varaqasidagi ma'lumotlarni, "dam olish" xususiyati shaxsning ko'ngli istagan joyda dam olish va

hordiq chiqarishga bo'lgan huquqi ekanligini, "aloqa" xususiyati esa do'stlari, tanishlari bilan munosabatlari ekanini yuqoridagi kabi tushunchalarga bo'lib ta'riflagan [7].

I.L. Petruxin "shaxsiy hayot" tushunchasini quyidagicha ta'riflaydi: "Oilaviy hayoti, qarindoshchiligi, do'stlari bilan munosabatlari, jinsiy va boshqa shaxsiy munosabatlari, biron-bir narsani yoqtirish-yoqtirmasligi, ijod erkinligi, fikr bildirishi, uni ifodalash huquqlari shaxsiy hayot bilan bog'liq" [8].

N. Richards shaxsiy hayot tushunchasiga quyidagicha ta'rif bergan: "Butun oiladagi hayot, qarindoshlik va do'stona aloqalar, turmush tarzi, jinsiy va boshqa shaxsiy munosabatlar, muhabbat, simpatiya va antipatiya, fikrlash, qiziqishlar ham shaxsiy hayot sohasiga kiradi" [9].

Ushbu olimlarning fikrini tahlil qilsak, shaxsiy hayot tushunchasiga berilgan ta'rif shaxsning oilaviy va ijtimoiy hayotini to'liq qamrab olmagan.

L.J. Straxilevis "Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqning pozitiv nazariyasi" asarida shaxsiy hayotni tushunish uchun bir necha xususiyatlarini sanab o'tadi [10]:

"Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqning pozitiv nazariyasi bo'yicha shaxsiy hayotning birinchi xususiyatlari:

a) oilaviy masalalar (oiladagi munosabatlarga oid ma'lumotlar);

b) tashkiliy masalalar (kun tartibini belgilash, o'qish yoki ish joyini tanlashda va tashkiliy masalalarda namoyon bo'ladi);

d) tibbiy masalalar (sog'liqni saqlashga qaratilgan harakatlarda ifodalanadi);

e) hordiq chiqarishga oid masalalar (dam olish va ko'ngil ochish kabi harakatlarda namoyon bo'ladi);

f) turli munosabatlarga oid masalalar (do'stlar, tanishlar va boshqalar bilan munosabatlar);

jinsiy munosabatlarga oid masalalar (jinsiy odatlar) va boshqalar".

Bu yerda, bizningcha, olim shaxsiy hayot daxlsizligi va shaxsga doir ma'lumotlarning

turlariga bo'lgan yondashuvni "aralashtirib" yuborgani hamda "ruhiy" (psixologik) daxlsizlik masalasi nazardan chetda qolganiga guvoh bo'lish mumkin. Nazarimizda, shaxsiy hayot daxlsizligi tushunchasini nazariy-huquqiy va konseptual yondashuv asosida ishlab chiqish, avvalo, shaxsiy hayot daxlsizligining quyidagi belgilarini aniqlashni taqozo etadi:

"shaxsiy hayot" haqidagi ma'lumotlarni shaxsning roziligisiz to'plash, saqlash, undan foydalanish yoki har qanday shakldagi ishlov berishning taqiqlanganligi;

shaxsga doir ma'lumotlarni nazorat qilish huquqi faqat shaxsga taalluqli ekanligi;

sha'n, qadr-qimmat va turli shaxsiy yoki oilaviy qadriyatlarining himoya qilinganligi;

tibbiy, biologik, genetik va kasbiy sirning himoya qilinganligi;

shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi ommaviy manfaatlarga daxldor emasligi;

shaxsning roziligisiz u haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilish yoki ishlov berish shaxsiy hayot daxlsizligining buzilishi sifatida belgilanishi.

S. Smart [11], P. Miller, N. Rouz [12], J. Ekler [13], V.A. Shtroo, A.A. Kozyak [14] kabi olimlarning tadqiqot ishlaridagi shaxsiy hayotning psixologik, sotsiologik, huquqiy va boshqa jihatlarini tadqiq etgan holda, raqamlashtirish sharoitida uning yangi tendensiyalari vujudga kelayotganini ta'kidlanmoqda. Shaxsiy hayot so'z erkinligi, din erkinligi, fikr erkinligi, o'z qarorlarini qabul qilish va o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini o'z ichiga oladi. Ushbu huquq insonga o'z qadriyatlari, e'tiqodlari, afzalliklari, munosabatlari va yaqinligini aniqlash imkoniyatini beradi [15].

Umuman olganda, shaxsiy hayot har bir insonning shaxsiy hayoti, erkinligi va davlat organlari, jamoatchilik yoki boshqa shaxslarning istalmagan va noqonuniy aralashuvidan himoya qilish huquqiga ega bo'lgan shaxsiy makondir.

*Shu nuqtayi nazardan "shaxsiy hayot" tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta'rif*



*ilgari surilmoqda: "Shaxsiy hayot – shaxsiy erkinlik, o'zini namoyon qilish va o'z taqdiri-ni o'zi belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan inson hayotining konfidensiallik va maxfiylik asosidagi shaxsiy, jinsiy va shaxsiy aspektlari yig'indisidir".*

Shuningdek, ayrim tadqiqotchilar shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi tushunchasiga ta'rif berish bo'yicha barcha harakatlar behuda ekanligi, ko'p hollarda shaxsiy hayot daxlsizligi sohalararo tadqiqotni talab etgani bois unga berilgan ta'rif yangi savollarni yuzaga keltirishi mumkinligini bildirib o'tadi. Jumladan, Gonkong universiteti professori R. Uaks shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi sohasida tadqiqotlar o'tkazib, ushbu tushunchaga doktrinal ta'rif berish shart emasligini [16] qayd etgan. Y. Telina ilmiy tadqiqotida shaxsiy hayot, shaxsiy va oilaviy sirlarga bo'lgan huquq insonning ajralmas konstitutsiyaviy huquqi hisoblanib, fuqaroligidan yoki milliy mansubligidan qat'i nazar, himoya qilinishi kerakligini [17], A.A. Avedyan shaxsiy hayot insonning amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan ma'naviy va fiziologik hayoti bo'lib, shaxsning ongida sir sifatida belgilanadigan ma'lumotlar tizimini tashkil etishini [18], M.V. Balgay shaxsiy hayot shaxsning hayot tarzi bo'lib, u boshqalar qo'liga tushishini istamaydigan ma'lumotlari hisoblanishi, bu "shaxsiy suverenitet" ekanligini [19], O.Y. Kutafin daxlsizlik tashqaridan bo'lgan har qanday tajovuzlardan himoyalanganlik holati hisoblanishini [20] qayd etib o'tadi.

O.E. Kutafin Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasiga bergan sharhida shunday yozadi: "Shaxsiy hayot daxlsizligi deganda shaxsiy, intim xarakterga ega bo'lgan ma'lumotlarning oshkor etilishiga yo'l qo'ymaslik, o'zi haqidagi ma'lumotlarni nazorat qilish uchun davlat tomonidan kafolatlangan imkoniyat tushuniladi. U bir qator vakolatlardan iborat. Bunda davlat va jamiyatdan, ish joyidan, ijtimoiy muhitdan tashqarida bo'lish imkoniyati borligi, ushbu huquqni amalga oshirishda aralashmas-

likning huquqiy kafolatlarini yaratish tushuniladi" [21].

Yuqorida nomlari qayd etilgan huquqshunos olimlarning ilmiy ishlarini tahlil etishdan ma'lum bo'ldiki, shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini ta'minlashda shaxsiy hayot daxlsizligining aralashmaslik va himoyalanganlik prinsiplari juda muhim ahamiyatga ega. Fikrimizcha, maxfiylik va konfidensiallik prinsipining mazmun-f mohiyatini farqlashda shaxsning erkinligini davlat organlari, jamiyat yoki boshqa shaxslarning istalmagan aralashuvidan himoya qilish dolzarb ahamiyatga ega.

"Shaxsiy hayot" tushunchasini aniqlashda uning har bir shaxsga individual ravishda qo'llash mumkin bo'lgan shaxsiy hayotning umumiy mezonlarini aniqlashdan kelib chiqish joiz. Birinchidan, shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining chegaralari subyektiv bo'lib, shaxsiy hayot (*privacy*) tushunchasi turli madaniyatlarda keskin farq qilishi mumkin. Jumladan, G'arb mamlakatlari va Sharq mamlakatlarida shaxsiy hayot chegaralari bir xil emas.

Ikkinchidan, shaxsiy hayot tushunchasining chegarasi holatlarga qarab o'zgarishi mumkin. Masalan, biz oilada shaxsiy hayotga tegishli deb biladigan ma'lumot ish joyida kasbiy ma'lumotlardan biri sifatida belgilanishi mumkin.

Uchinchidan, shaxsiy hayot tushunchasi vaqt o'tishi bilan ham shaxsiylik doirasining o'zgarishini boshdan kechirishi mumkin. Jumladan, hozir biz shaxsiy ma'lumot deb hisoblagan ma'lumotlar vaqt o'tishi bilan shaxsiylik xususiyatini yo'qotishi ham mumkin.

To'rtinchidan, davlat organlari mansabdor shaxslarining shaxsiy hayotida davlat fuqarolik xizmati doirasida yoki korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarga bog'liq istisnolarni e'tiborga olish holatlari ham kuzatilishi mumkin.

Konfidensiallik (*confidencial*) shuni anglatadiki, shaxsga doir ma'lumotlar shifrlangan, ularga kirish login va parol bilan yopil-

gan va xavfsizlik tizimi o'rnatilgan bo'ladi. Maxfiylik – daxlsizligini nazorat qilish shaxsning o'zida saqlanib qoladigan, tashkilotlar, saytlar, xizmatlar doirasida ishlatadigan ma'lumotlar tizimi deyish mumkin.

Demak, shaxsiy hayot daxlsizligining asosiy prinsiplari sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin, deb hisoblaymiz.

*Birinchidan*, aralashmaslik prinsipi (*Laissez-faire*) davlat va boshqa shaxslar shaxsiy hayotga uning roziligisiz yoki qonuniy asossiz aralashmasligi kerakligini anglatadi. Bu shaxsning huquqqa zid yoki noqonuniy aralashuvdan, shu jumladan, tegishli qonuniy asoslarsiz va protseduralarga rioya qilmasdan noqonuniy tinglash, kuzatish, qidirish yoki so'roq qilishdan ozod bo'lish huquqiga ega bo'lishini ta'minlaydi. Aralashmaslik shaxsiy hayotni himoya qilishning asosiy prinsipi bo'lib, shaxsning shaxsiy sohasi, shaxsiy hayoti va shaxsiy ishlari hurmat qilinishi kerakligini anglatadi.

*Ikkinchidan*, himoyalanganlik prinsipi maxfiylik huquqini kafolatlash va ta'minlash bilan bog'liq. Bu odamning shaxsiy hayoti va shaxsiy sohasining ehtimoliy buzilishlaridan himoyalanihini anglatadi. Himoya, qonunda nazarda tutilgan holatlardan tashqari, shaxsiy ma'lumotlarni har qanday shaklda noqonuniy yig'ish, ishlatish yoki oshkor qilishning oldini olish uchun qonuniy qoidalar va mexanizmlar mavjud bo'lishi kerakligi bilan ifodalanadi.

*Uchinchidan*, maxfiylik prinsipi har bir kishiga u haqida qanday ma'lumotlar va shaxsiy ma'lumotlar to'planishi, ishlatilishi va oshkor etilishini nazorat qilishni kafolatlaydi. Ushbu huquq shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarni noqonuniy to'plashdan, shaxsiy hujjatlarga yoki yozishmalarga uning roziligisiz kirishdan himoya qilishni, shuningdek, qonuniy asoslarsiz shaxsiy ishlar hamda ma'lumotlarni jamoatchilikka oshkor qilishni cheklashni ifodalaydi.

*To'rtinchidan*, konfidensiallik prinsipi shuni ko'rsatadiki, shaxsiy ma'lumotlar, shuningdek, maxfiy ma'lumotlar shaxsning roziligisiz no-

qonuniy yig'ilishi, foydalanilishi yoki oshkor qilinishidan himoyalangan bo'lishi kerak.

*Beshinchidan*, o'z taqdirini o'zi belgilash hamda mustaqillik prinsipi har bir insonning mustaqillik, tanlov erkinligi, shaxsiy qararlarga aralashishdan xoli bo'lish huquqini, shuningdek, fikr, e'tiqod va so'z erkinligini anglatadi.

*Oltinchidan*, diskriminatsiyadan himoyalaniish prinsipi jamiyat va qonunchilikni har bir shaxsning o'ziga xos xususiyatlariga, shu jumladan, yosh, jins, millat, din, nogironligiga asoslangan kamsitishning har qanday shakliga qarshi kurashishga majburligini anglatadi.

Milliy huquqshunos olimlardan professor O. Xusanovning fikricha, shaxsiy hayot uning yakka o'ziga tegishli bo'lgan huquqlari, fikrlari, ishlari, yakka tartibda o'zi uchun muhim qarorlarni qabul qila olishi [22], akademik A. Saidovning fikriga ko'ra, shaxsiy hayot daxlsizligi shaxsning individual hayotiga tashqaridan aralashmaslikni nazarda tutib, bunga fizik (hayoti, inson sog'lig'i) va psixik daxlsizlikni (axloqiy, diniy, shaxs sha'ni va vijdoni) anglatadi [23].

Fikrimizcha, shaxsiy hayot daxlsizligi har bir insonning individual erkinligi va mustaqilligini hurmat qilishga asoslangan. Uning mohiyatiga ko'ra, boshqa shaxslar yoki ommaviy manfaatga putur yetkazmagan holda, har bir inson o'zi haqida qanday ma'lumotlarni va kimga oshkor qilishni, shaxsiy hayotga nisbatan qanday qarorlar qabul qilishni va o'zini qanday tutishni mustaqil ravishda aniqlash huquqiga ega.

N. Saburov o'zining ilmiy ishida shaxsiy hayot daxlsizligiga quyidagicha ta'rif bergan: "Shaxsiy hayot daxlsizligi – shaxsning tug'ilishi bilan vujudga keladigan va hech kimning aralashishiga yo'l qo'yilmaydigan insonning hayot turmush tarzidir" [24]. Shuningdek, Sh. Saydullayev ham o'z ilmiy ishida N. Saburovning yondashuvini qo'llab-quvvatlaydi [25].

Mazkur fikrni qo'llab-quvvatlagan holda shuni qo'shimcha qilish mumkinki, har bir inson o'limidan keyin ham o'z shaxsini va integ-

ritetini saqlab qolish huquqiga ega. Bu shuni anglatadiki, inson hayoti davomida maxfiy bo'lgan ma'lumotlar uning o'limidan keyin ham maxfiy bo'lishi kerak.

G. Tulaganova "Shaxsning sha'ni va qadrimmatini himoya qilish konstitutsiyaviy huquqlardan biridir" nomli maqolasida shaxsiy hayot daxlsizligini shaxsiy hayotga aralashuv bilan bog'lagan. Jumladan, olim a'z maqolasida "Shaxsiy hayotga aralashmaslik – insonning shaxsiy huquqlarini kafolatlovchi asosiy konstitutsiyaviy prinsiplardan biridir. Mazkur prinsip ostida insonning shaxsiy va oilaviy hayotiga kimningdir aralashuvi, shuningdek, uning roziligisiz shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlarni tarqatish man etilishi tushuniladi", – deb ta'riflagan [26].

Xorijiy va milliy huquqshunos olimlarning ilmiy ishlarini tadqiq etish davomida olimlar tomonidan shaxsiy hayot daxlsizligi tushunchasining ta'rifi ishlab chiqilgan yoki ayrim mutaxassislarning fikrlariga ko'ra, shaxsiy hayotga ta'rif murakkab, noaniq va ko'p qirrali tushuncha deb hisoblangan bo'lsa-da, ammo mazkur tushunchaning tarkibiy xususiyatlari hamda huquqiy tabiati to'laqonli ochib berilgan, deb bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi milliy huquqiy internet portalida berilgan izohli lug'atda "Shaxsiy hayot daxlsizligi – insonning asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo'lib, shaxsiy va oilaviy hayotning qonun bilan qo'riqlanishini anglatadi. Shaxsning roziligisiz uning shaxsiy hayoti to'g'risida axborot to'plash, saqlash, foydalanish va tarqatish taqiqlanadi. Ba'zida shaxsning o'zi to'g'risidagi ro'yxatga olingan ma'lumotlar bilan tanishib chiqish, ulardan foydalanish, noaniqliklari bo'lsa, tuzatishlar kiritish tarzidagi qo'shimcha kafolatlar ni belgilaydi" [27], deb ta'riflagan.

Ko'rinib turganidek, qomusiy manbalarda ham shaxsiy hayot daxlsizligi tushunchasiga shaxsga doir ma'lumotlar tushunchasi bilan hamohang yondashuv aks ettiriladi. Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi mazmunini ochib berish uchun uning tarkibiga kiradigan ikki-

ta eng muhim elementni ajratib tahlil qilish lozim bo'ladi. Jumladan, "shaxsiy hayot" va "daxlsizlik" tushunchalariga aniqlik kiritish lozim.

Fikrimizcha, shaxsiy daxlsizlik deganda bir jihatdan, davlat, jamiyat, uchinchi shaxslar tomonidan aralashmaslik, boshqa tarafdin esa ma'lum sohalarida davlat tomonidan himoyalani sh tushuniladi.

V.N. Lopatin insonning har qanday erkinligiga qilingan tajovuz shaxsiy hayot daxlsizligiga qilingan tajovuz ekanligini [28], V.N. Bloskiy shaxsiy hayot hayotning ma'lum daqiqalarida o'zini ajratish, o'zi uchun chegaralari boshqalarga daxlsiz bo'ladigan ma'lum bir jismoniy va psixologik makonni ta'minlash istagini anglatishini [29], S.V. Solgalov shaxsiy hayot insonning o'zi tomonidan boshqariladigan jismoniy va ma'naviy soha sifatida belgilanib, tashqi boshqaruvchi ta'sirlardan, shu jumladan, huquqiy tartibga solishdan xoli bo'lishi lozimligini [30], N.V. Tkachyova shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi subyektiv huquq hisoblanib, shaxsni to'liq mustaqil shaxs sifatida o'z hayotini o'zi belgilash, o'zi uchun mustaqil qarorlar qabul qilish, shaxsiy va oilaviy ma'lumotlarini himoya qilishini ta'minlash huquqini o'z ichiga olishini qayd etadi [31].

### **Tadqiqot natijalar tahlili**

Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini ta'minlashga oid kafolatlarining rivojlanish bosqichlariga taalluqli doktrinal qarashlar va xalqaro standartlarni tahlil qilgan holda, quyidagi tendensiyalarni ilgari surish mumkin.

*Birinchidan*, shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining shakllanishi: shaxsiy hayot tushunchasi turli madaniyat va jamiyatlarda tarixiy ildizlarga va o'ziga xos shartlarga ega. Hammurapi qonuni va Aristotel tomonidan ishlab chiqilgan shaxsiy hayot daxlsizligiga oid tamoyillar hamda falsafiy g'oyalar mazkur fenomenning ilmiy-nazariy poydevorini yaratdi.

*Ikkinchidan*, inson huquqlarini himoya qilish va xalqaro huquqning rivojlanishi: XX asrda inson huquqlarining rivojlanishi faol

tarzda xalqaro faoliyatga kirib bordi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi kabi muhim xalqaro hujjatlar shaxsiy hayot daxlsizligini asosiy huquqlardan biri sifatida e'tirof etdi. Ushbu xalqaro e'tirofdan so'ng shaxsiy hayotni himoya qilishga qaratilgan huquqiy hujjatlarni yaratish ishlari boshlandi.

*Uchinchidan*, milliy qonunchilikning rivojlanishi: inson huquqlarining rivojlanishi bilan milliy davlatlar shaxsiy hayot daxlsizligini kafolatlaydigan qonunlar va siyosatlarini ishlab chiqdilar. Bunga ma'lumotlarning maxfiyligi to'g'risidagi qonunlar, tibbiyotda maxfiylikni ta'minlash va shaxsiy ma'lumotlar va maxfiylikni himoya qilishning boshqa shakllari kiradi.

*To'rtinchidan*, texnologik o'zgarishlar va raqamli makonning rivojlanishi: texnologiyaning rivojlanishi hamda jamiyatning raqamlashtirilishi bilan shaxsiy hayotga yangi muammolar va tahdidlar paydo bo'ldi. Internet, mobil qurilmalar, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish kabi texnologiyalar shaxsiy hayot daxlsizligini buzish uchun yangi xavf-xatarlarni vujudga keltirmoqda. Ushbu qiyinchiliklarga javoban raqamli muhitda shaxsiy hayotni himoya qilishga qaratilgan yangi qonunlar va siyosatlar paydo bo'ladi.

*Beshinchidan*, xalqaro hamkorlik va standartlar: raqamli davrda shaxsiy hayotni himoya qilishda yuzaga keladigan muammolar xalqaro hamkorlik va xalqaro standartlarni ishlab chiqishni talab qiladi. BMT, Yevropa Ittifoqi va boshqa tashkilotlar zamonaviy qiyinchiliklar va texnologik o'zgarishlarni hisobga olgan holda shaxsiy hayotni himoya qilishni kafolatlaydigan xalqaro vositalar va standartlarni ishlab chiqish ustida ishlamoqda.

Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish sharoitida shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining asosiy funksiyalari quyidagi jihatlarini o'z ichiga oladi:

1. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish: raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan biz haqimizda ko'proq shaxsiy ma'lumotlar

yig'iladi, qayta ishlanadi va saqlanadi. Raqamli davrda shaxsiy hayotning asosiy vazifasi shaxsiy ma'lumotlarni ruxsatsiz kirish, o'qish yoki suiiste'mol qilishdan himoya qilishdir. Bunga maxfiylik tamoyillari, rozilik asosida ma'lumotlarni yig'ish, majburiy ogohlantirish va xavfsizlik choralari kiradi.

2. Onlayn maxfiylik: raqamli asrda hayotimiz tobora ko'proq ijtimoiy media, elektron pochta, onlayn xaridlar va boshqa raqamli platformalar orqali o'zaro aloqada bo'lgan onlayn muhitga o'tmoqda. Maxfiylikning asosiy vazifasi shaxsiy ma'lumotlarimiz, hisoblarimiz, yozishmalarimiz, moliyaviy ma'lumotlarimiz va boshqa raqamli faoliyatimizning onlayn maxfiyligi va uni himoya qilishni o'z ichiga oladi.

3. Davlat nazoratini tartibga solish: raqamli texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida davlat nazorati va fuqarolarni nazorat qilish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'lmoqda. Maxfiylikning asosiy vazifasi davlat ma'lumotlarini yig'ish, kuzatish, tinglash va boshqa raqamli nazorat shakllari uchun qoidalar va cheklovlarni belgilash, xususi sohani suiiste'mol qilish va noqonuniy bosib olishning oldini olishdir.

4. Raqamli izni himoya qilish: raqamli muhitdagi barcha harakatlarimiz to'planishi, tahlil qilinishi va turli maqsadlarda ishlatilishi mumkin bo'lgan iz qoldiradi. Maxfiylikning asosiy vazifasi raqamli izimizni himoya qilish va raqamli ma'lumotlarimizga kim kirishini hamda undan qanday foydalanilishini nazorat qilish imkoniyatini o'z ichiga oladi.

5. Fikr erkinligi va diversifikatsiyasini kafolatlash: raqamli asrda ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar erkin fikr bildirish hamda ma'lumotlarga kirish uchun muhim maydonga aylandi. Maxfiylikning asosiy vazifasi so'z erkinligini himoya qilish, fikrlarni diversifikatsiya qilish va har bir insonning onlayn muhitda o'z aloqalari va qarashlarining maxfiyligiga bo'lgan huquqini ta'minlashdir.

Yuqorida keltirilgan olimlarning fikrlaridan xulosa qiladigan bo'lsak, shaxsiy hayot daxlsizligi insoniy odatlarni belgilovchi,



oiladagi munosabatlarni, boshqa shaxslar bilan norasmiy muloqotni o'zida aks ettiruvchi ma'lumotlar himoyasiga bo'lgan huquqni ifodalaydi. Shaxsiy hayot daxlsizligi tabiiy huquq bo'lgani sababli, ya'ni qonun hujjatlarida mustahkamlangan yoki mustahkamlanmaganidan qat'i nazar, tug'ilishdan shaxsga tegishli bo'ladi. Davlat ushbu huquqning amalga oshishi uchun undan foydalanish imkoniyatini emas, balki ushbu huquqqa ega bo'lishini ta'minlash majburiyatini bajarishi zarur.

### **Xulosalar**

Shaxsiy hayot daxlsizligining yuridik tabiati xususida quyidagi yakuniy xulosalarga kelish mumkin:

1) shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi shaxsning o'z hayotiga, shaxsiy harakat va qarorlariga bo'lgan mustaqillik huquqini ifodalaydi. Ushbu huquq muayyan shaxsning individualligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, boshqa subyektlarning aralashuvidan himoyalaniş holatini ifodalaydi;

2) shaxsning tashqi ta'sirlardan xoli bo'lgan jismoniy va ruhiy holati turli muhitlarni, xususan, oilaviy muhiti, maishiy muhiti (oilalari, lavozimi, millati, dini va boshq.), muloqot muhiti (ishqiy, do'stona yoki qiziqishlari va b.), diniy muhiti to'g'risidagi ma'lumotlarning himoyalanganlik holatini aks ettiradi;

3) shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi boshqa shaxsiy huquqlar bilan bog'liq huquq hisoblanadi;

4) uchinchi shaxslar tomonidan shaxsning rozilgisiz shaxsga doir ma'lumotlarni to'plash, saqlash, undan foydalanish, tarqatish yoki har qanday ko'rinishda ishlov berish taqiqlanishi va huquqiy kafolatlarini talab etadi;

5) shaxsning shaxsiy hayot daxlsizligiga davlat, tashkilotlar, yuridik va jismoniy

shaxslar tomonidan o'zboshimchalik bilan aralashishga yo'l qo'yilmasligi va bu boradagi qonun buzilishlari bo'yicha qat'iy javobgarlik choralari belgilanishini taqozo etadi.

Demak, yuqorida keltirilgan ta'riflar va shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining xususiyatlaridan kelib chiqib, shaxsiy hayot daxlsizligiga quyidagicha mualliflik ta'rifini berish maqsadga muvofiq.

“Shaxsiy hayot daxlsizligi” institutining huquqiy va ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish asosida uning tushunchasini “Shaxsiy hayot daxlsizligi – shaxsiy, oilaviy, ruhiy-psixologik va boshqa shaxsiy tusdagi munosabatlarga boshqa shaxslar tomonidan aralashmaslik, shaxsiy, oilaviy va boshqa shaxsiy tusdagi sirlarni oshkor qilmaslik, shaxsning rozilgisiz shaxsiy ma'lumotlarini yig'ish, saqlash, o'zgartirish, foydalanish, tarqatish yoki har qanday ko'rinishda ishlov berishga yo'l qo'ymaslik hisoblanadi”, deya ifodalash mumkin.

Zamonaviy konstitutsiyaviy doktrinalarga ko'ra, inson, uning huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etilgan. Shunga qaramay, inson huquqlari murakkab ko'p qirrali tushuncha ekanligidan kelib chiqib, shaxsiy hayot daxlsizligi tushunchasining aniq nazariy-huquqiy ta'rifini ishlab chiqish boshqa huquqlarga yondashishni taqozo etadi. Jumladan, insonning yashash huquqi, uy-joy daxlsizligi, yozishmalar siri, vijdon erkinligi kabi tabiiy huquq va erkinliklar davlat tomonidan berilmaydi, balki tug'ilganidanoq shaxsga tegishli hisoblanadi. Davlat esa huquq va erkinliklarni qonun bilan mustahkamlashi hamda uni ta'minlashi lozim bo'ladi.

Shu jihatdan shaxsiy hayotni insonning shaxsiy va oilaviy hayoti, yashash muhiti, turar joyi, jismoniy va ruhiy daxlsizligini ifodalaydigan holat sifatida ta'riflash mumkin.



## REFERENCES

1. Universal Declaration of Human Rights. Official website of the United Nations. Available at: <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>
2. International Covenant on Civil and Political Rights. Available at: <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights>
3. International Convention on the Protection of the Rights of All Migrant Workers and Members of Their Families Adopted by General Assembly resolution 45/158 of 18 December 1990. Available at: <https://www.ohchr.org/sites/default/files/Documents/ProfessionalInterest/cmw.pdf>
4. Warren S., Brandeis L. The right to privacy. *Columbia University Press*, 1989, pp. 1–21.
5. Maleina M. Lichnyye neimushhestvennyye prava grazhdan (ponyatiye, osushchestvleniye i zashchita) [Personal non-property rights of citizens (concept, implementation and protection)]. 1997.
6. Grigor'yev B. Chastnaya zhizn', yeyo neprikosновенnost' i pravo: sootnosheniye ponyatiy [Private life, its inviolability and law: the relationship of concepts]. *Education and Law*, 2010, no. 1, pp. 123–128.
7. Krasavchikova L. Lichnaya zhizn' grazhdan pod okhranoy zakona [Personal life of citizens under the protection of the law]. 1983.
8. Petrukhin I. O prepyatstviyakh na puti sudebnoy reformy [On the obstacles to judicial reform]. Problems of ensuring the rights of participants in the process under the new Criminal Procedure Code of the Russian Federation. *Proceedings of the Interregional scientific and practical conference*. Samara, 2002, December 18–19. Ed. S.A. Shafer. 2003, p. 7.
9. N. Richards Intellectual privacy. *Tex. L. Rev.*, 2008, vol. 87, p. 387. Available at: <https://web.s.ebscohost.com/ehost/pdfviewer/pdfviewer?vid=0&sid=bcbe4e4f-1398-46ed-a3c1e99fe0adcaf3%40redis>
10. Strahilevitz L. Toward a positive theory of privacy law. *Harvard Law Review*, 2013, vol. 126, no. 7, pp. 2010–2042. Available at: [https://chicagounbound.uchicago.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1588&context=law\\_and\\_economics](https://chicagounbound.uchicago.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1588&context=law_and_economics)
11. Smart C. Personal life. *Polity*, 2007.
12. Miller P., Rose N. Governing the present: Administering economic, social and personal life. *Polity*, 2008.
13. Eekelaar J. Family law and personal life. Oxford University Press, 2017.
14. Shtroo V.A., Kozyak A.A. Lichnostnyy smysl balansa mezhdu rabotoy i lichnoy zhizn'yu [Personal meaning of work-life balance]. *World of Psychology*, 2015, no. 3, pp. 253–267.
15. Bocharov V. Kontseptsiya balansa raboty i lichnoy zhizni kak osnovaniye dlya tipologii strategiy trudovogo povedeniya rabochey molodezhi [The concept of work-life balance as the basis for a typology of labor behavior strategies for working youth]. *Social and Labor Research*, 2020, no. 2 (39), pp. 113–129.
16. Wacks R. Law, Morality and the Private Domain. Hong Kong University Press, 2000, vol. 1.
17. Telina Y. Konstitutsionnoye pravo grazhdanina na neprikosновенnost' chastnoy zhizni, lichnuyu i semeynuyu taynu pri obrabotke personal'nykh dannykh v Rossii i zarubezhnykh stranakh [The constitutional right of a citizen to privacy, personal and family secrets when processing personal data in Russia and foreign countries]. 2016.
18. Avedyan A. Yuridicheskaya priroda obespecheniya prava na neprikosновенnost' chastnoy zhizni [Legal nature of ensuring the right to privacy]. *Yurist-Pravoved – Lawyer*, 2012, vol. 2 (51), pp. 93–96. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/yuridicheskaya-priroda-obespecheniya-prava-na-neprikosновенnost-chastnoy-zhizni/viewer>
19. Balgay M. Konstitutsionnoye pravo Rossiyskoy Federatsii [Constitutional law of the Russian Federation]. Moscow, Norma Publ., 2015, p. 666.
20. Kutafin O. Neprikosновенnost' v konstitutsionnom prave Rossiyskoy Federatsii [Inviolability in the constitutional law of the Russian Federation]. Moscow, Prospekt Publ., 2014. Available at: <https://>

books.google.co.uz/books?hl=ru&lr=&id=Jia5BAAAQBAJ&oi=fnd&pg=PT2&ots=ReIdVdiugG&sig=i4yA WHMZPGdX7mIUeFhhXNv0YAg&redir\_esc=y#v=onepage&q&f=false

21. Postateynyy nauchno-prakticheskiy kommentariy k Konstitutsii Rossiyskoy Federatsii kollektiva uchenykh-pravovedov pod rukovodstvom rektora MGYUA, akademika RAN O.Ye. Kutafina [Article-by-article scientific and practical commentary on the Constitution of the Russian Federation by a team of legal scholars under the leadership of the rector of the Moscow State Law Academy, academician of the Russian Academy of Sciences O.E. Kutafina]. Moscow, 2003, p. 342.

22. Xusanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq [Constitutional right]. Tashkent, Military-technical institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan Publ., 2019, 185 p.

23. Saidov A.X. Inson huquqlari umumiy nazariyasi [General theory of human rights]. Tashkent, 2012, 42 p.

24. Saburov N. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh [Commentary on the Constitution of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 2008, 137 p.

25. Saydullayev Sh. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh [Commentary on the Constitution of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 2013, 137 p. Available at: <http://unicat.natlib.uz:8088/uz-Latn-UZ/Record/Details/03204d75-8abd-4127-9395-b8708d7831dd>

26. Tulaganova G. Zashchita chesti i dostoinstva cheloveka kak odno iz konstitutsionnykh prav [Protection of human honor and dignity as one of the constitutional rights]. *Review of Law Sciences*, 2020, vol. 4, no. spec. iss.

27. National legal internet portal of the Republic of Uzbekistan. Legal dictionary. Available at: <https://huquqiportal.uz/dictionary>

28. Bachilo I., Lopatin V., Fedotov M. Informatsionnoye pravo [Information law]. *Law and Informatization of Society*, 2002, no. 02.

29. Blotskiy V. Konstitutsionnoye obespecheniye prava cheloveka na neprikosnovennost' chastnoy zhizni v Rossiyskoy Federatsii [Constitutional provision of the human right to privacy in the Russian Federation]. 2001.

30. Solgalov S. Konstitutsionno-pravovyye osnovy prava na neprikosnovennost' chastnoy zhizni v Rossiyskoy Federatsii [Constitutional and legal foundations of the right to privacy in the Russian Federation]. PhD thesis. Moscow, Russian Academy of Public Administration under the President of the Russian Federation, 2010.

31. Tkacheva N. Konstitutsionnyy printsip neprikosnovennost' chastnoy zhizni [Constitutional principle of privacy]. *Bulletin of the South Ural State University. Law Series*, 2005, no. 8 (48), pp. 194–196. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/konstitutsionnyy-prinsip-neprikosnovennost-chastnoy-zhizni>

# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL 6-SON

VOLUME 3 / ISSUE 6 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.6.

**BOSH MUHARRIR:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Ergashev Ikrom**

Ilmiy boshqarma boshlig'i, dotsent, yuridik fanlar doktori

**Mas'ul muharrir:** N. Ramazonov

**Muharrirlar:** Sh. Jahonov, F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,  
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

**Musahhih:** M. Sharifova

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.

**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Veb-sayt:** [www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)

**E-mail:** [lawjournal@tsul.uz](mailto:lawjournal@tsul.uz)

**Obuna indeksi:** 1387.

Jurnal 21.12.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 7.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: 131.

TDYU tipografiyasida chop etildi.